The article also analyzes the political and social environment, religious-conservative attitudes, limited material and technical resources, and administrative barriers that affected the operation of these schools. The findings demonstrate the historical significance of new-method schools in promoting national revival, strengthening spiritual culture, and shaping modern pedagogical thought.

Key words: Bukhara Emirate, new-method schools, Jadidism, enlightenment, education system, usul-i jadid, pedagogical activity, school reform, secular education, national revival.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ возникновения, развития и деятельности новометодных школ на территории Бухарского эмирата в конце XIX - начале XX века, их роли в системе образования и педагогического значения.

Рассматриваются отличительные особенности новометодных школ, созданных по инициативе джадидских просветителей, по сравнению с традиционной системой обучения, методы преподавания, содержание учебных программ, внедрение светских дисциплин и их вклад в развитие национального просвещения.

Кроме того, исследуются политические и социальные условия, влияние религиозно-консервативных взглядов, недостаточная материально-техническая база и административные препятствия, оказывавшие влияние на деятельность новометодных школ. Обосновано историческое значение новометодных школ в процессе национального возрождения, духовного развития общества и формирования современной педагогической мысли.

Ключевые слова: Бухарский эмират, новометодные школы, джадидизм, просветительство, система образования, усули джадид, педагогическая деятельность, школьная реформа, светские знания, национальное возрождение.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar ta'lim tizimini isloh qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, Buxoro amirligida mavjud an'anaviy maktab va madrasalar faoliyati asosan diniy bilimlarni o'qitishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim mazmuni zamon talablari bilan hamohang rivojlanmay qoldi. Natijada jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlar, matematika, geografiya, tarix va boshqa dunyoviy bilimlarni o'qitish masalasi dolzarb pedagogik muammoga aylandi. Shu sharoitda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan ta'limni yangilash g'oyalari asosida yangi usul maktablari vujudga keldi.

Yangi usul maktablari Turkiston va Buxoro hududida milliy ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu maktablar o'qitishning tovush usuli (usuli savtiya) asosida tashkil etilishi, qisqa muddatda savod chiqarishga yo'naltirilganligi, darslik va o'quv qo'llanmalarining yangicha mazmunda yaratilganligi hamda dunyoviy fanlarning o'quv dasturlariga kiritilganligi bilan an'anaviy maktablardan tubdan farq qilar edi. Jadid ma'rifatparvarlari ta'limni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholab, xalqning ilm-ma'rifat darajasini oshirish, milliy ong va tafakkurni rivojlantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslab berdilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buxoro amirligida yangi usul maktablarining tashkil topishi va faoliyati jadidchilik harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishida Abdurauf Fitrat, Ahmad Donish, Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy kabi ma'rifatparvarlarning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etdi. Ular ta'lim tizimini isloh qilish, zamonaviy fanlarni o'qitish, yangi darsliklar yaratish hamda xalq orasida ma'rifat g'oyalarini targ'ib etishga katta e'tibor qaratdilar. Natijada Buxoroda yangi usul maktablari soni ortib bordi va ular milliy uyg'onish harakatining muhim markazlariga aylandi.

Biroq yangi usul maktablarining faoliyati murakkab tarixiy sharoitda kechdi. Amirlikdagi konservativ kuchlar, ayrim ruhoniylar va eski ta'lim tarafdorlari tomonidan yangi maktablarga nisbatan qarshiliklar kuzatildi. Moddiy-texnik bazaning zaifligi, malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, o'quv adabiyotlari taqchilligi hamda ma'muriy cheklovlar yangi usul maktablari faoliyatining keng rivojlanishiga to'sqinlik qilgan omillar sifatida namoyon bo'ldi. Shunga qaramasdan, ushbu maktablar Buxoro amirligida zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishi, milliy ziyolilar qatlamining vujudga kelishi va pedagogik tafakkurning yangilanishida muhim tarixiy vazifani bajardi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, milliy pedagogik merosni o'rganish va tarixiy tajribalarni zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish zarurati Buxoro amirligidagi yangi usul maktablari faoliyatini chuqur ilmiy tadqiq etishni talab etmoqda. Mazkur maktablarining tashkil topish omillari, pedagogik faoliyati, erishgan yutuqlari va duch kelgan muammolarini o'rganish milliy ta'lim tarixini boyitish bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida Buxoro amirligida yangi usul maktablari faoliyatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, yutuqlari va muammolarini ilmiy asosda yoritish maqsadida tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv, retrospektiv tahlil, manbashunoslik tahlili, pedagogik kuzatuv hamda ilmiy adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik, tizimlilik va uzviylik tamoyillari tashkil etib, Buxoro amirligi davridagi ta'lim-tarbiya jarayonlari, an'anaviy maktab tizimi va yangi usul maktablarining pedagogik faoliyati o'zaro qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro amirligida yangi usul maktablaridagi ta'lim-tarbiya XIX asr oxirida vujudga kelgan. Yangi maktablarga usuli savtiya, tadrijiya (rivojlanuvchi tovush usuli) deb nom berilgan.

1911 yilning boshlarida Mukomiliddin Burxonov tomonidan Buxoroda yangi usul maktabi ochiladi. Ushbu maktabdagi o'quvchilar soni 40 nafardan ortiq bo'lgan. Buxorodagi jadid maktablari ichida Mukomiliddin Burxonov tashkil etgan maktab o'zining jihozlanishi bilan ajralib turgan, unda oynali derazalar, temirdan yasalgan pechkalar mavjud edi. Yangi o'quvchini qabul qilish, sinfdan sinfga ko'chirish, maktabni bitirish qat'iy tartibda bo'lgan, o'quvchilar bilimni baholash 6 ballik tizim bilan amalga oshirilgan, imtihonlar tashkil etilib, ular targ'ibot maqsadida oshkora, namoyishkorona tarzda o'tkazilgan.



Buxoroda Amir Olimxon tomonidan amalga oshirilgan tadbirlardan biri - mavjud kichik-kichik (ba'zan 3-4 nafar o'quvchidan tashkil topgan) maktablarni yirikroq qilib birlashtirilishi, maktab o'qituvchilari uchun xazinadan maosh tayinlanishi bo'lib, bu sohaga ozroq bo'lsa-da hukumatning aralashayotganligidan dalolat berar edi. Bu haqda o'sha davr matbuoti xabar qiladi.

1911-1912 yillarda Buxoro amirligi hududida yangi usul maktablarining soni 57 taga yetadi.

1912 yilning 9 oktabrida Chorjo'yda Otaxo'ja (Otaulla Xo'jayev)ning yangi usul musulmon maktabi ochiladi. 1912 yilning boshlarida Yosh buxoroliklarning faol a'zolaridan bo'lgan Usmon Xo'ja jadid maktablaridan birini qayta tashkil etadi.

Usmon Xo'ja tashkil etgan jadid maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari butunlay yangi tartiblar asosida yo'lga qo'yilgan edi. Bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo'lish, bir kunda 4-5 soatdan ortiq dars o'tmaslik, har bir darsdan so'ng 10 daqiqalik tanaffus joriy qilish, asosiy e'tiborni dunyoviy fanlarni o'qitishga qaratish, asosan, birinchi bosqichda o'quvchilarning savodini chiqarish, juma va yakshanba kunlari dam olishni joriy qilish, 10 oylik tahsildan so'ng bolalarga ta'til berish, o'quvchilardan vaqti-vaqti bilan imtihon olib turish, bolalarni yorug' va mumkin qadar shinam xonalarda o'qitib, o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar: globus va xaritalaridan foydalanish qoidalariga e'tibor qaratilgan.

1912 yilning oxirlarida Usmon Xo'janing qarindoshi Latif Xo'ja tomonidan Govkushon mahallasida yangi maktab ochiladi. Shahar savdogarlari homiyligida ishlagan ushbu maktab ikki sinfdan iborat bo'lib, har bir sinfda 3 ta globus, kitoblar, o'tirish va yozish uchun partalar, o'quvchilarga beriladigan daftarlar, o'quv qurollari, devoriy taxta (doska) bo'lgan. Bitta sinfda boshlang'ich ta'lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta'lim olganlar o'qigan.

Darslarni Usmon Xo'ja va Yosh buxoroliklar partiyasi a'zosi Mulla G'ulom Qodirali olib borgan. Darslar Samarqandda nashr etilgan fors-tojik tilidagi darsliklar asosida olib borilgan. 30 kishidan iborat ikki sinf o'quvchilarning barchasi Buxorodagi boy savdogarlarning farzandlari bo'lib, ular tez va to'g'ri o'qiydigan bo'lishgan. Mazkur maktabda tan jazosi qo'llanilmagan.

1912 yilda Bozori Nav guzarida o'qituvchi Mullo Hamidxo'ja uyida yangi maktab ochiladi. Unda 32 nafar o'quvchi bo'lib, darslar rus tilida olib borilgan. O'qituvchi Mulla Vafo darslarni Gramenidkiy darsligi asosida olib borgan. Ko'p o'quvchilar olti oyda rus tilida ravon yozib va o'qib bilgan. Mulla Vafo maktabida 30-35 bola o'qigan. Bundan tashqari, yana bir qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan. Bunday maktablar Buxoro xalqining e'tiborini qozongan va o'zining kelajagi porloq ekanligini ko'rsatgan.

Ayrim jadid maktablarida, masalan, Usmon Xo'ja va Hamidxo'ja Mehriy maktablarida bir necha o'qituvchi ishlagan, shuning uchun pedagogika kengashi faoliyat ko'rsatgan, tanaffus paytida o'qituvchilar navbatchilik qilishgan.

Maktablar ko'pincha uning tashkilotchilari tomonidan ta'minlab turilgan, ayrim hollarda ularga boy-badavlat kishilar homiylik qilib turishgan. Bulardan tashqari, maktablarning ta'minoti ota-onalar tomonidan beriladigan o'qish puli hisobidan ham yo'lga qo'yilgan. Masalan, Abdulvohid Munzim (Burxonov) tashkil etgan maktabda o'qish puli oyiga 3 so'mni tashkil etgan. O'quvchilarning 15-20 foizi, asosan, kambag'allarning farzandi bo'lib, ular bepul o'qitilgan. Shuni ham e'tirof etish lozimki, yangi usul maktabida o'qish puli an'anaviy maktabga nisbatan ancha yuqoriroq bo'lgan. Bu o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq edi: an'anaviy maktabda 6-10 yil o'qilsa, yangi usul maktabida 4 yil o'qitilgan. Jadid maktablarida o'qitish bosqichlari, o'qitish usullari va o'qitiladigan fanlar aniq bo'lgan.

Jadid maktablari ikki bosqichda tashkil qilingan. Birinchi bosqich boshlang'ich, ikkinchi bosqich o'rta deb atalgan. Birinchi bosqichda tahsil muddati 4 yil (1-4-sinflar) bo'lib, birinchi yili forscha, arabcha yozuv va o'qish o'rgatilgan. Qur'oni Karimdan suralar yod olingan. Hisob ilmi o'rgatilgan. Ikkinchi yilida Haftiyak, imyon va e'tiqod darslari, turkiy, forsiy va arabiy tillarda she'rlar o'qitilgan. Uchinchi yilida esa Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid (qiroat ilmi), Sa'diydan nasihatlar (axloq ilmi), turkiy va forsiy til (tilshunoslik ilmi) o'rgatilib, undan insholar yozdirilgan. Hisobdan turli taqvimiy va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilda Kalomi sharif tafsiri, mufassal tajvid, turkiy va forsiy tilida nazm-u nasr (adabiyot), turkiy va forsiy til, hisob, tarix va jug'rofiya o'qitilgan.

Shuningdek, jadid maktablarida arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik (qattiq asos, gaz, havo, issiq, sovuq), tabiiy bilim asoslari (shu jumladan, mineralogiya va hatto anatomiya, kimyo va fizika elementlari) o'qitilgan.

Mirzo Abdulvohid maktabining yopilishi bilan ham mutaassiblarning ko'ngli joyiga tushmagan. Chunki Mirzo Abdulvohidning maktabi yopilganidan keyin 50 dan ortiq o'quvchilar tatar maktabiga kirib o'qiy boshladilar. Ushbu holga chiday olmagan buxorolik ulamolar Buxoro hukumatiga murojaat qilib, tatar maktabining ham yopilishini talab qiladilar. Avvaliga Buxoro hukumati ham, Rossiya elchixonasi ham bu ishni hal qila olmadi, chunki tatarlar Rossiya fuqarosi bo'lib, ular Buxoro hukumatiga bo'ysunmas edilar. Nihoyat, bir chorani topadilar: buxorolik bolalarni o'qishga olmaslik sharti bilan tatar maktabining ishlashiga ruxsat etiladi.

Shuningdek, tatar maktabining ham yopib qo'yilishi Buxoroda norozilikni keltirib chiqargan. Buxoroda yashayotgan tatarlar va yangi usul maktabi tarafdorlari bo'lgan Yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari maktab-

larning yopilishi xususida shikoyat maktubi tayyorlab, uni I. Gaspirinskiyga topshirganlar. "Tarjimon" gazetasida buxorolik mullalar nomiga bitilgan ochiq maktublar ham e'lon qilingan. "Rossiyadagi musulmon gazeta va majallalari uzun maqolalar yozib, Buxoro hukumati va ulamolarini to'g'ri tanqid qila boshladi. Ayniqsa, hajviy "Mulla Nasriddin" majmuasi bu voqea munosabati bilan ma'nodor rasmlar bilan Buxoro ulamolari haqida bir sahifada bir kitob ma'nosini ifoda qiladigan narsalarni butun savodli va savodsizlarning ko'z oldilariga qo'ydi", - deb yozgan edi Sadriddin Ayniy.

Amirlikdagi diniy ulamolarning yangi usul maktablariga nisbatan munosabatlarini Fayzulla Xo'jayev quyidagicha ifodalaydi: "Dunyo buzildi, musulmonlikdan qaytgan bir necha boylar jadid maktablari ochib, ohista-ohista bolalarimizni dindan chiqaralar. Olti oyda bolalarning xat va savodini chiqarsalar, madrasalar xarob bo'lur. Dehqon bolalari dono bo'lgandan keyin amirga soliq bermaydilar, xazina bo'shaladur. Hammamiz och qolurmiz".

O'z vaqtida amir hukumati va jadidlar o'rtasidagi munosabatlarning guvohi bo'lgan Mirzo Salimbekning xotirlashicha, yangi usul maktablarida bolalar juda qisqa fursatda savod chiqara borgani bois, uning obro'si oshib borgan. Eski maktabdan ko'pchilik yuz o'girib, mullalar, harbiy sipohlar, savdogarlar va do'kondorlar bolalarini yangi maktablarga o'qishga bera boshlaganlar. Yangi usul maktablaridagi darsliklarning barchasida diniy qoidalarga alohida e'tibor berilgan edi. Ammo keyinchalik bu maktablarda dunyoviylik kuchayib borgan.

Yangi usul maktablari nafaqat Buxoro shahrida, balki amirlikning barcha beklik va tumanlarida ham faoliyat ko'rsatgan.

1908-1912-yillarda Karkida tatar bolalari uchun maktab hamda rus tilini o'rganuvchilar uchun maktab ochilib, kutubxonalar ishga tushirilgan. Qori Yo'ldosh Po'latov, Fazliddin Maxsum, Hoji Jo'raqul va Abdufattoxjonlar bu jarayonda faol ishtirok etganlar. Amirlikning Shahrisabz bekligida Islomqul To'qsabo o'z uyida yangi usul maktabi ochib, unda ishlash uchun Toshkent va Samarqanddan bir necha muallimlarni taklif etgan. Ushbu muallimlar tomonidan keyinchalik yana bir necha maktablar tashkil etilgan.

1913-yilda amirlikning G'ijduvon tumanida Abdul Hakim Xo'ja bir necha yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo'lgan. Uning o'zi ochgan maktablar uchun darsliklar yozilgan, yoshi kattalar uchun kechki maktablar ham tashkil etilgan.

1913-yilda Qorako'l tumanida amlokdor G'ulom Qodir bilan Qozi Ikrom bir maktab ochib, o'z bolalarini hamda xohlovchilarning farzandlarini o'qitishni yo'lga qo'ygan. Bu yerda Sulaymonxo'ja tomonidan gazetalar tarqatilib, kitoblar keltirilgan va kutubxona ishi yo'lga qo'yilgan. Shofirkon va Vobkent tumanlarida ham yoshlar bilan ishlash, adabiyotlar tarqatish hamda maktablar ochish ishlari tashkil etilib, tatar muallimlaridan foydalanilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yangi usul maktablari 1910-1913-yillarda amirlik hududlari bo'ylab keng tarqalgan. Garchi ularning o'quvchilari unchalik ko'p bo'lmasa-da, yangi usuldagi maktablar to'g'risidagi tasavvurning shakllanishiga hamda aholining ushbu maktablarga nisbatan xayrixoh bo'lishiga yordam bergan. Amirlik hukumati cheklangan tarzda bo'lsa ham ta'lim tizimini isloh qilish ishiga bir muncha muddat e'tibor bergan. Sadriddin Ayniy ta'kidlaganidek, ushbu maktablar "nim (yarim) isloh maktablari" edi.

1912-1913-yillarda maktab ochish va uning o'quv jarayonlarini to'g'ri tashkil etish ishida ma'lum darajada siljish kuzatilgan. Qozi Burhoniddin kabi mutaassiblarning Buxorodan quvilishi hamda ayrim mansabdorlarning vazifasidan chetlashtirilishi oqibatida maktablar masalasida vaqtinchalik mo'tadillik vaziyati yuzaga kelgan.

1912-1913-yillarda Buxoro shahrida Mulla Abulqosim, Muqomiddin Maxsum va G'iyos Maxsum Husayn tomonidan yashirin maktablar ochilib, ularda 100 nafardan ortiq bola o'qigan.

Govkushon hovuzi bo'yida hamda Hovuzi Arbob guzarida maktablar ishlay boshlagan. Poyi Ostona guzarida ruscha va musulmoncha maktab ochilgan. Xiyobon guzarida Mirzo Ismoilbekning ukasi tomonidan kattalar uchun savod chiqarish maktabi tashkil etilib, unda xat-savod o'rgatish, hisob va geografiya fanlari o'qitilgan.

Buxoro shahrining Mo'r Kushon va Ikkinchi Xiyobon guzarlarida ochilgan maktablarni shaharning boy savdogarlari ta'minlab turgan. Abulqosim maktabidagi o'quvchilar soni 300 nafardan ortiq bo'lib, o'quv ikki smenada olib borilgan, darslar esa Tehron (Eron)da nashr etilgan darsliklar asosida tashkil etilgan.

Buxoroda jadidchilik harakatining jonkuyarlaridan biri Ota Xo'ja Po'latxo'jayev (Otaulla Xo'jayev) edi. U maslakdoshlari bilan yangi usul maktabini ochgan, biroq bir necha oydan so'ng bu maktab amir hukumati tomonidan yopib qo'yilgan. Shunday bo'lsa-da, u taqiqlarga qaramay, Buxoroda yashirincha kechki maktablar ochishda faol qatnashgan. Abdurauf Fitratning o'zi ham 1913-1914-yillarda Ota Xo'ja Po'latxo'jayev bilan birgalikda Shahrisabz va Karkida maktablar ochish bilan shug'ullangan.

1914-yilda Buxoroda mashhur Usmon Xo'janing maktabida 200 nafar, Eshon Homid Xo'janing Bozori Nav guzaridagi maktabida 100 nafar, Mulla Vafo maktabida esa 80 nafar o'quvchi ta'lim olgan. Ulardan Mulla Vafo maktabida darslar rus tilida olib borilgan. Rus tilidagi maktabga asosan savdogar va tijoratchilarning bolalari qatnagan. Yangi usul maktablarining ko'pchiligida esa mayda savdogarlar va kambag'al oilalarning farzandlari



ta'lim olgan. Buning asosiy sababi hukumat tomonidan jadid maktablariga tazyiq o'tkazilishi edi. Shu bois boy tabaqa yangi usul maktablaridan xavfsiragan.

1914-yilga kelib Buxorodagi barcha yangi usul maktablari qattiq qarshilikka uchragan. Amirlikning o'ta mutaassib ruhoniylari jadid maktablari xususida shunday fatvo berganlar: "U (ya'ni maktab) shariatga qarshi. Birinchi yilda o'quvchilar gazeta o'qiydi, ikkinchi yilda ozodlik talab qiladi, uchinchi yilda esa oliy hazratlarini taxtdan ag'daradi."

Amirlikning chekka hududlaridagi yangi usul maktablari ham tazyiqqa uchragan. Masalan, Qorako'ldagi amaldor G'ulom Qodirning maktabi ham 1914-yilda amirning farmoni bilan yopilgan.

1914 yilda "Oyina" jurnalida Mirzo Ulugbek jome masjidining muazzini 5-6 ming kishi huzurida "kim bolasini usuli jadid maktabiga bersa, o'zi kofir, xotuni taloq", deb aytgani haqida ma'lumot beriladi.

Shunga uxshash ma'lumotni "Turkiston viloyati gazetasi"da uchratdik. Bu ma'lumotda: "Ba'zi ulamolarnig fikricha, usuli jadidni ukigan bola kofir bular emish. Shuning uchun bolalarni u yerga yubormanglar deganlar. Ammo u yerda Kur'on koidalari, farzi-ayn kabi islom asoslari ukitilar edi. Yana mullalarning ba'zisi usuli jadid maktablarida bolalar stol-stullarda utirishini kurib, bu kofirlarning stuli der edilar".

1914-yil 4-iyulda amir Olimxon odatdagidek juma namoziga borgan paytida mutaassib ruhoniylar yangi usul maktablarini yopish to'g'risida shikoyat qiladilar. Qozikalon Burhoniddin jadid maktablarini badnom qiluvchi va bu maktablarni tezda yopishga qaratilgan quyidagi mazmundagi arizani amir Olimxonga yozadi: "Amir marhum davrlarida ulamoning fatvolari bilan usuli jadid maktablarining harom va bid'atligi sobit bo'lib, janobi oliyning amrlari bilan yopilgan edi. Bir necha vaqtdan beri yana muftidlar bosh ko'tarib, shaharning har tarafida maktablar ochib, xalqning bolalarini buzib, fitna va fasod qo'zg'atib yuribdurlar. Agar janobi oliyning amrlari bilan ushbu maktablar tezlik bilan bog'lanmasa, mullabachchalar bu bid'atni barham bermoq uchun o'zlari qo'zg'alishlari aniqdir. U holda mamlakatda fitna va fasodlar ko'payib, davlati oliyga zarar yetishi ehtimoldir."

1914-yilning 5-iyulida amir Said Olimxonning farmoni bilan Buxorodagi barcha jadid maktablari yopiladi, maktab tashkilotchilari va muallimlarining aksariyati shahardan chiqarib yuboriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yangi usul (usuli-savtiya) tovush chiqarib o'qish maktablarining Buxoro amirligida paydo bo'lishida jadidchilikning "g'oyaviy otasi" Ismoilbek Gaspiralinig xizmati katta bo'lgan. Uning 1893-yilda Bog'chasaroyda (Qrim) Amir Abdulahad bilan uchrashib, Buxoroda "Muzaffariya" maktabiga asos solishi bilan "usuli-savtiya" maktablari tarixi boshlangan.

Yangi usul maktablari an'anaviy maktablardan quyidagi jihatlari bilan afzal edi:

1. Ta'lim jarayoni sinf-dars tizimida olib borilib, har bir soatdan so'ng o'quvchilarga 10 daqiqalik tanaffuslar berilgan. O'quvchilar stullarda o'tirib, yorug' xonalarda tahsil olganlar. Ularga savodli tatar muallimlari hamda mahalliy va xorijda tahsil olib kelgan shaxslar saboq bergan.
2. Darslar ko'rgazmali qurollar (globus, xarita va hokazo) yordamida o'tilib, o'quvchilar saboqni quruq yodlash bilan emas, balki tovush chiqarib o'qiganlar. Bolalarning savodi tez chiqqan va ularga ko'proq dunyoviy fanlar o'qitilgan.
3. Maktablarning moliyaviy ahvoli, moddiy-texnik bazasi hamda sanitariya-gigiyena holati eski maktablarga nisbatan yaxshi bo'lib, pedagoglar kengashi tashkil etilgan, maktablarda o'qituvchilar navbatchilik qilganlar.
4. Buxoro amirligidagi yangi usul maktablari o'quvchilarga boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar) berib, ota-onalar ishtirokida imtihonlar qabul qilingan. Biroq ularda o'rta va oliy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilmagan edi.

Yangi usul maktablarini dastlab tatar muallimlari ochgan. 1908-yildan boshlab esa mahalliy jaddilarning o'z uylarida va badavlat kishilar xonadonlarida 30–50 nafargacha bolalar ta'lim oladigan maktablar faoliyat ko'rsatgan. Ushbu maktablarning amirlik bo'ylab keng tarqalishi va ko'payish davri 1911-1913-yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda 100, 150 va 200 nafar o'quvchiga mo'ljallangan yangi usul maktablari faoliyat yuritgan. Mazkur maktablar Usmon Xo'ja, Ota Xo'ja, Abduvohid Munzim, Hamid Xo'ja kabi Istanbulda (Turkiya) tahsil olib kelgan yoshlar tomonidan tashkil etilgan.

Yangi usul maktablari diniy mutaassiblar va reaksion amaldorlar talabi bilan 1914-yil 5-iyulda amirning maxsus farmoni orqali yopib qo'yilgan. Ularning muallimlari va tashabbuskorlaridan tushuntirish xatlari olingan. Maktablar haqida "kofir maktabi", bolalar o'tirgan stullar esa "kofir stuli" degan fikrlar tarqatilib, ayrim muallimlarga tan jazosi (darra bilan savalash) qo'llanilgan.

Yangi usul maktablari faoliyatida ham muammolar mavjud edi. Eng avvalo, ular uchun yagona o'quv dasturining mavjud emasligi, har bir maktabda turli darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanilishi, malakali

muallimlarning yetishmasligi, ularning asosan boshlang'ich ta'lim maktablari ekanligi, maktablarning xususiy yoki xayriya asosida faoliyat yuritganligi, shuningdek, moliyaviy muammolarning mavjudligi shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldoshev N. Ma'rifat fidoyilari // Guliston. - Toshkent, 1991. - № 4. - B. 20–21.
2. Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. - С. 86.
3. Туркестанские ведомости. - 1911. - 14 апреля.
4. Бендриков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркистане (1865-1924). - С. 260.
5. Bobojonova F. X. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). - Buxoro, 2014. - B. 101.
6. Xayitov Sh., Badriddinov S. Eslatilgan kitob. - B. 47.
7. Qarang: Tursunmetova G. XX asr boshlarida Turkiston ta'lim-tarbiya tizimida jadid maktablari. - B. 124.
8. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. - I tom. - B. 213.
9. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. - I tom. - B. 213.
10. Xujayev F. Xotiramda // Buxoro axbori. - 1921. - № 48.
11. Mirza Salimbek. Tarixi-Salimi (istochnik po istorii Buxarskogo emirata). - Tashkent : Akademiya, 2009. - S. 207.
12. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. - I tom. - B. 245. Buxoroyi sharif. - 1912. - 29 noyabr.
13. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent : O'qituvchi, 2002. - B. 107.
14. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. - I tom. - B. 245.
15. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. - I tom. - B. 210.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.